

Alisher Navoiy

(1441-1501)



E'TIROF



- Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.

Islom Karimov


•Alisher Navoiy
1441-yilning
9-fevralida
Hirot shahrida
tavallud topgan.

- Alisherning maktabdosh do‘sti Husayn Boyqaro taxtga chiqishi bilan uni Samarqanddan Hirotg'a chaqirib oladi va muhrdor qilib tayinlaydi.
- 1472-yildan vazirlik martabasiga ko‘tariladi, 1487-88-yillarda Astrobodda hokim bo‘lib ishlaydi.



Buyuk ijodkor
1501-yil 3-yanvar
kuni vafot etdi.

**Alisher Navoiyning qabri Hirotda.
Hirot esa Afg` onistonda joylashgan.**





Xamsa

"Panj ganj" ("Besh xazina")

- Nizomiy Ganjaviy 1173-1201-yillar oralig`ida ilk “Xamsa” dostonlarini yozdi:
- 1173—1179-yillarda "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi")
- 1180—1181-yillarda "Xusrav va Shirin" dostoni
- 1188-yilda "Layli va Majnun" dostonini
- 1196- yilda "Haft paykar" ("Yetti go'zal")
- 1196—1201- yillarda "Iskandarnoma" yaratiladi

ASLI SHAHRISABZLIK XUSRAV DEHLAVIY

- Xusrav Dehlaviy (1253-1325) o'zining "Xamsa"sini 1299-1301-yillarda yozib tugalladi:
- "Matla' ul-anvor" ("Nurlarning boshlanmasi");
- "Shirin va Xusrav";
- "Majnun va Layli";
- "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat");
- "Oyinayi Iskandariy" ("Iskandar oynasi").

"Xamsa" deb atalmog'i uchun:

- a) besh dostondan tashkil topmog'i;
- b) birinchi doston, albatta, pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lmg'i;
- c) ikkinchi doston Xusrav va Shirin munosabatlariga bag'ishlanmog'i;
- d) uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog'i;
- e) to'rtinchi doston shoh Bahrom va beshinchi doston Iskandar haqida yozilmog'i shart.

TURKIY BESH DOSTON

- Alisher Navoiy
juda qisqa bir
muddat - ikki yil
(1483 — 1485)
davomida
51 ming misradan
ortiq besh dostonni
yozib tugalladi.



Navoiyning buyuk merosi

- “**Hayrat ul-abror**” **dostoni** - 1483-yil yozilgan. Aruzning Sari bahrida. 3988 bayt-7976 misra, 64 bob – 21 bob muqaddima, 20 maqolot, 20 hikoya, 3 bob xotima; dastlabki 2 bob ustozlar haqida, 2 bob so’z haqida.
- “**Farhod va Shirin**” **dostoni** – 1489-yil yozilgan. 59 bob, 5782 bayt. Dostonning so’nggi bobi- Boyqaroning o’g’li Abdulfavoris Shohg’arib Bahodirxon G’aribiyyga nasihat shaklida bitilgan. Hazaji musaddasi mahzuf vaznida.
- “**Layli va Majnun**” **dostoni** - 1484-yil. 36 bob. 3622 bayt. Hazaji musaddasi axrab vaznida.
- “**Sab’ai Sayyor**” **doston** – 1484-yil. 38 bob, 5000 bayt. Aruzning Hafif bahrida yozilgan.
- “**Saddi Iskandariy**” **dostoni** - 1485-yil. 89 bob, 7215 bayt. Aruzning Mutaqorib bahrida

"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONI

Muallif bu asarni "shavq dostoni"deb ataydi. Sababi unda ishq kuylanadi, talqin qilinadi va ulug'lanadi. Bu shunday ishqki, u insonnipoklaydi, ezgulik sari yetaklaydi, unga o'zligini tanitadi, birso'z bilan aytganda, komillik sifatlarini tarbiyalaydi. Chunki u odamga, olamga, butun borliqqa mehr bilan, muhabbat bilan yo'g'rilgan va oxir borib Yaratganning o'ziga ularashib ketadigan ishqdir.

Dostonda Navoiyning komil inson haqidagi orzu-o'ylari ham ifoda etilgan.

- O'ziga xoslikka intilgan adib o'zigacha bo'lgan an'analarga ijodiy yondashadi.
- Doston Navoiygacha "Xusrav va Shirin" shaklida mashhur edi. Ularda markaziy obraz shoh **XUSRAV** edi.



- Lekin u — komillikdan yiroq, ishqda beqaror, muhabbatdan toj-taxtni ustun bilguvchi xudbin shaxs.

- Shuning uchun Navoiy uni Shirinning muhabbatiga ham, yozilajak dostonidagi bosh obraz darajasiga ham loyiq ko'rmaydi.
- U Farhodni bosh obraz qilib oldi va bu bilan dostonning qurilishini, mazmunini tamomila o'zgartirdi.
- Mazkur o'zgarish xamsachilikka shoir kiritgan eng katta yangilik va dostonga "**Farhod va Shirin**" nomi berilishiga asos bo'ldi.

- Dostonning asosiy voqealarini ovozasi olamni tutgan, qudrat-u shavkatda, davlat-u shuhratda yagona Chin hoqonining farzandsizligi va bundan uning so'ngsiz iztiroblarga tushganligi tasviri bilan boshlanadi.



OSHIQ FARHOD TASVIRI

- ...Yuzinda ishq asrori yozilg'an,
- Ichinda dard ta'vizi qozilg'an.
- ... Ko'zida ashk selidin asarlar,
- Damida oh dudidin xabarlar.
- Muhabbat nuri ollinda huvaydo,
- Jamolida vafo tug'rosi paydo.
- Falak deb: "Dard dining shohi" oni,
- Malak deb: "Dard o'ti ogohi" oni.
- ...Vafo haylida g'avg'o shodlig'din,
- Biri birga muborakbodlig'din.



4 FASLGA MONAND 4 QASR

- Hoqon balog`at ostonasidagi Farhodning ko'nglini olish uchun uchun to'rt fasliga moslab to'rt oliy qurdirish fikriga keldi.
- Farhodning atobegi, ya'ni tarbiyachi — ustozи Mulkoro bu ishga ma'mur etib tayinlandi. *Xitoyning mashhur meymori Boniy, naqqoshi Moniy hamda tosh yo'nuvchi Quran qurilishga jalb etildilar.*





SIRLI SANDIQDAGI SHART

- Oynaning orqasidagi tilsimda yozilishicha, ko'zgu tilsimini ochmoqchi bo'lgan odam xatarli safarga otlanib, Yunonistondagi bir toqqa borishi kerak. Ungacha uch manzil bo'lib,
- birinchisida ajdahoni,
- ikkinchisida Ahraman devni,
- uchinchi manzilda ikkalasidan ham mushkulroq tilsimni yengishi kerak.
- To'rtinchi manzil — o'sha tog'dagi g'or ichidan donishmand Suqrot topiladi.

SHIRIN TAVSIFI:

- Harimi iffat ichra shoh ul ermish,
- Sipehri ismat uzra moh ul ermish.
- Yuzi gul, kirpigi derlar tikandur,
- Ne bor andoqqi hargiz bor ekandur.
- ...Yuzi birla qilur bazmini gulshan,
- Aning birla ko'rар olamni ravshan.

HUSNDA TENGSIZ SHIRIN!



Savot-javob

Dedi: "Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!"
Dedi: "Majnun vatandin qayda ogah?"
Dedi: "Nedur sanga olamda pesha?"
Dedi: "Ishq ichra majnunluq hamesha".
Dedi: "Bu ishdin o'lmas kasb ro'zi!"
Dedi: "Kasb o'lsa basdur ishq so'zi".
"Ishq o'tidin de fasona!"
"Kuymay kishi topmas nishona".

"Kuymagingni ayla ma'lum!"
"Andin erur joh ahli mahrum"

"Qay chog'din o'ldung ishq aro mast?"
"Ruh ermas erdi tang'a payvast".

"Bu ishqdin inkor qilg'il!"
Bu so'zdin istig'for qilg'il"...



G`OLIB
OSHIQ VA
MAG'LUB
SHOH



Komil inson orzusi

Tasavvuf - musulmon olamida keng tarqalgan islom diniga asoslanuvchi buyuk ta'limot. Tasavvuf orqali insoniyat Islom dinining ichki va tashqi go'zalligini, uningbuyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma'naviy jihatdan poklash, ya'ni komil insonni tarbiyalashdir. Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma'naviyatli, barkamol shaxs komil insondir.



Aksariyat adabiyotlarda komil inson ruhiy poklangan inson tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Demak, rujni poklash g'oyat muhim. Poklanishning yo'li esa bitta, u nafshi yengishdir.

Nafs nima?

- Nafs deganda yemoqlik, ichmoqlik, kiymoqlikdan tashqari yana johillik, ilmsizlik, manmanlik, kibru-havo, dunyoparastlik, zulm, o'g'rilik, tanballik, g'urur, tama', ko'rolmaslik, baxillik, mansabparastlik, shahvat, ko'ngli torlik, g'azab, umuman, inson ruhini, qalbini bulg'aydigan, uni Ollohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar yig'indisi tushuniladi.

Bilimingizni sinang!

- 1. Sharqda “Xamsa” yozish an’anasini kim boshlab bergen?
- 2. Asar “Xamsa” deb atalmog’i uchun qanday talablarga javob berishi kerak?
- 3. A. Navoiy “Xamsa”sining boshqa xamsanavislarning “Xamsa”sidan farqi?
- 4. “Farhod va Shirin” aruzning qaysi vaznida yozilgan?
- 5. Navoiyning komil inson haqidagi o’ylari qaysi dostonida ifoda ettirilgan?
- 6. Navoiy xamsachilikka qanday yangilik olib kirdi?
- 7. Dostonning asosiy voqealari nimadan boshlanadi?
- 8. Farhodning tarbiyachi ustozи kim?
- 9. Qasrlar qurilishi paytida Farhod kimlardan qanday hunarlarni o’rgandi?
- 10. Tilsimda aytilgan 3 to’siq nima?
- 11. Suqrot Farhodga kimlarning taqdiri haqida bashorat qiladi?
- 12. Farhod o’limi oldidan kimlarni yod etadi?
- 13. Qaysi asarda bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmaydi deb ta’kidlanadi?
- 14. Nafs deganda nima tushuniladi?

**E'TIBORINGIZDAN
XURSANDMIZ!**

